

KASBGA YO'NALTIRILGAN INGLIZ TILI HAQIDA TURLI NAZARIYALAR

Qarshiyeva Shoxista Xoliqul qizi

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

“Xorijiy tillar” kafedrasida ingliz tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada, kasbga yo'naltirilgan ingliz tili haqida turli olimlarning fikralari, kurs jarayonida o'qituvchining vazifalari va muayyan sohada ingliz tilini o'qitish uchun e'tiborga olinadigan muhim omillar haqida ifoda etilgan.

Kalit so'zlar: Kasbga yo'naltirilgan ingliz tili, kurs dizayneri, professional ta'lim, pozitsiya, tadqiqotchi, hamkor, baholovchi.

Bugungi taraqqiy etayotgan jamiyatda, ingliz tilini o'qitishning zamonaviy usullari kundan kunga son jihatdan ham, sifat jihatdan ham yuqori marralarga erishib kelmoqda. Bugungi kunda talabalarning sifatli ta'lim olishida o'qituvchi-pedagoglarning o'rni beqiyosdir. Ayniqsa professional ta'lim maskanlarida kasbga yo'naltirilgan ingliz tilini samarali o'qitishni yo'lga qo'yish eng muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Kasbga oid ingliz tilini o'qitish jarayonida sohalar aro deyarli har bir fanning o'ziga xos "atamasi" mavjud, masalan biznes, tibbiyot, texnika va turli ilmiy-texnik sohalar. Bu atamalar murakkabroq bo'lishi bilan birga, bahs va munozaraga ham boydir. Chunki ingliz tili dunyoda keng tarqalgan tillar ichida dominant hisoblanib, bugungi kunda ingliz tilini aynan maxsus maqsadlarda ham o'rganish eng muhim vazifa sifatida baholanmoqda.

O'rganuvchining tilni o'rganish uchun talabgor ingliz tilida kasbiy ko'nikmalar to'plamiga ega bo'lish hamda muayyan ish bilan bog'liq funksiyalarni bajarish – o'quvchining o'z oldiga qo'ygan eng muhim maqsadi hisoblanadi. “Maxsus maqsadlarda ingliz tili” deganda ingliz tilini ikkinchi til yoki xorijiy til sifatida muayyan sohalarida ingliz tilidan foydalana bilish va ko'nikmalarga ega bo'lish kabilar nazarda tutiladi. (Fitria, 2019).

Hans (2015) ingliz tilini muayyan maqsadlarda o'qitish jarayonida grammatika va til strukturalarini o'qitishdan ko'ra, tilni kontekst ichida o'rgatish ko'proq mahsuldor ekanligini ta'kidlaydi.

Hutchinson va Waters (1987) larning ta'kidlashicha, tarixiy hodisalarning natijasi o'laroq ingliz tilini maxsus maqsadlarda o'rganish butun dunyo bo'ylab fan, texnologiya va tijorat sohalarida ingliz tilini o'rganishni istagan odamlar soni sezilarli o'sgan. Shuning uchun, kasbga yo'naltirilgan ingliz tilini o'qitish jarayonida darsliklar va materiallar o'rganuvchilarning xohish va maqsadlariga moslashtiriladi. Robinson (1991: 3) “muayyan maqsadlarda ingliz tili” ta'rifini 2 ta me'zon asosida ta'riflaydi:

- odatda “maqsadga yo’naltirilgan”;

- maxsus maqsadlarda ingliz tilini o’qitish o’rganuvchilarning ehtiyoj va imkoniyatlari asosida rivojlantiriladi;

Dudley-Evans va John (1998) larning ta’kidlashicha maxsus maqsadlar uchun ingliz tili quyidagi xususiyatlarni o’z ichiga qamrab oladi:

Kasbga yo’naltirilgan ingliz tili o’rganuvchilarning muayyan sohadagi ko’nikmalari bilan uyg’unlashadi;

Kasbga yo’naltirilgan ingliz tili o’zi xizmat qilayotgan sohaning yashirin metodologiyasi va faoliyatidan foydalanadi;

Kasbga yo’naltirilgan ingliz tili ushbu faoliyat turlariga mos grammatika, leksika, diskurs, o’rganish qobiliyatlari, nutq va janrlarni o’z atrofida birlashtiradi.

Muayyan maqsadlar uchun ingliz tili o’qitish kurslarida o’qituvchining pozitsiyasi

Widdowson (1990) “pozitsiya” atamasini turli xil yo’nalishlarda foydalanishini bahs-munozara ostiga oladi, lekin umuman olganda, “pozitsiya” atamasi muayyan ijtimoiy harakatdagi ijroning bir qismi sifatida qaraladi.

Wright (1987) kundalik hayotda bizning bir nechta ijtimoiy pozitsiyalarimiz borligini ta’kidlaydi. Til o’qitish jarayonida, pozitsiya ham o’qituvchi ham o’rganuvchining statusidan kelib chiqib aniqlanadi va bu faoliyat turlariga qarab o’zgarib boradi. Masalan, o’qituvchi bir vaqtning o’zida ham baholovchi ham murabbiy sifatida gavdalana oladi (Lunan va Lamb, 1996).

Dudley-Evans va John (1998) maxsus maqsadlarda ingliz tili o’qituvchilari uchun 5 ta pozitsiyani ilgari suradi: kurs dizayneri, materiallar bilan ta’minlovchi, tadqiqotchi, hamkor va baholovchi.

- o’qituvchi sifatida;

Darhaqiqat, kasbga yo’naltirilgan ingliz tili o’qituvchisi ingliz tilini o’rgatadi. Xolbuki, asosiy farq o’qitishning orqasida turgan maqsadga bog’liq (Harmer, 2001). Muayyan maqsadlar uchun ingliz tili darslarida o’qituvchi nafaqat til haqida ko’nikmalarni hosil qiluvchi shaxs sifatida emas, balki o’rganuvchilarning ehtiyoj va imkoniyatlarini baholovchi sifatida ham gavdalanadi. Chunki, o’qituvchi muayyan kasbga doir kontentlarni asosiy bilimdoni bo’libgina qolmay, u o’zining auditoriyasiga asosiy tushunchalarning mazmunini tushunish uchun nimalar kerakligini bilishi zarur va muqobildir. Buning natijasida, sinfdagi o’rganuvchilarga mos keladigan muqobil materiallar saralanib olinadi.

- kurs dizayneri va material bilan ta’minlovchi sifatida;

Muayyan maqsadlar uchun ingliz tili kursi o’rganuvchilarga ham akademik ham professional parametrlardan foydalanishga motivatsiya beradi. Shu sababli kasbga yo’naltirilgan ingliz tili kurslari va manbalari o’rganuvchilarning xoxish va zaruriyatlarini tahlil qilish asosida shakllantiriladi (Baskturkmen, 2006). Shuningdek, kurs dizaynerlari har qanday kursni shakllantirishdan avval o’rganuvchilarning ehtiyoj

va zaruriyatlarini, imkoniyatarini faoliyat turlariga mos kelishini tushinib olishlari maqsadga muvofiqdir.

- *tadqiqotchi sifatida;*

Kasbga yo'naltirilgan ingliz tili dunyo bo'ylab ingliz tilini o'qitishda muhim pozitsiyani egallaydi. O'z yo'lida u tilga oid nazariyalar va tadqiqotlarni namoyish qilib boradi (Hyland, 2009). Xolbuki, kasbga yo'naltirilgan ingliz tilini o'qitish jarayonida maqsadli fan-mutaxassisligiga oid lingvistik tadqiqot manbalari chegaralanib qolgan (Baskturkmen, 2006). Sierocka (2008) ga ko'ra, muayyan maqsadlar uchun o'rganiladigan ingliz tili o'qituvchilarini shaxsiy maqsadi (ya'ni "ular nimaga erishishni xoxlaydi") ustida tadqiqot olib borishi talab etiladi (Sierocka 2008: 35). So'ngra, kurs dizayni yoki materiallar tayyorlashdan avval, o'qituvchilar muayyan fan sohasi uchun kerak bo'ladigan matn janrlari, til ko'nikmalari ustida izlanishlar olib borishi zarur (Dudley-Evans va St John, 1998).

- *hamkor sifatida;*

Har qanday ta'limiy mashqlarda faoliyat turlarini hamkorlar bilan muvofiqlashtirish eng muhim pog'ona sifatida baholanadi (Nunan & Lamb, 1996). Bu hamkorlik orqasidagi maqsad fanga oid ko'nikmalar, vazifalar va sillabus haqida bilimga ega bo'lish yotadi.

- *baholovchi sifatida;*

Baholash ham kundalik hayotimizdagi mavhum faoliyat ekanligi bundan mustasno emas. Til o'qitish jarayonida, baholash - o'rganuvchilarning kurs davomida nimaga erishganligi haqida munosabat bildirish sifatida tadqiq qilinadi (Dudley-Evans va St John, 1998). Baholash o'qituvchilar tomonidan olib borilishi kerak, chunki o'qituvchi o'zining auditoriyasidagi o'rganuvchilarni mutaxassisligi va zaruriyatlari haqida bohabar bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, muayyan maqsadlar uchun ingliz tili o'rganuvchilarining maqsadi aniq va konkretlikka asoslangan bo'ladi. Bu yo'nalishda zarurat va imkoniyatlarni baholash kommunikativ maqsadlar asosida shakllantirish tilni o'qitish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Kasbga yo'naltirilgan ingliz tili o'qitish mobaynida nafaqat til ko'nikmalarini shakllantirish, balki kasbga doir bilim va ko'nikmalarni aynan shu tilda tushunarli qilib o'rganuvchilarga yetkazib berish bu soha mutaxassislarining pirovard vazifasi sifatida shakllanib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fitria T. N., Teaching English for specific purposes. *Journal of English Teaching Adi Buana, Vol. 05 No. 01, April 2020*
2. Basturkmen, H. (2006). *Ideas and Options in English for Specific Purposes*. New Jersey: Lawrence Erlbaum Associates Inc.
3. Dudley-Evans, T & ST John, M. (1998) *Developments in English for Specific Purposes: A Multi-Disciplinary Approach*. UK: Cambridge University Press.

4. Fitria, T. N. (2019). Business English as a part of teaching English for specific purposes (ESP) to economic students. *Jurnal Education and Economics*, 2, 10.
5. Hans, A., & Hans, E. (2015). A Comparative Study of English for Specific Purposes (ESP) and English as a Second Language (ESL) Programs. *International Journal on Studies in English Language and Literature (IJSELL)*, 3(11), 26-31.
6. Hutchinson, T., & Waters, A. (1987). *English for Specific Purposes: A Learning Centered Approach*. Cambridge: Cambridge University Press
7. Widdowson, H. G. (1990). *Aspects of Language Teaching*. China: Oxford University Press
8. Wright, T. (1987). *Roles of Teachers and Learners*. Hong Kong: Oxford University Press.